

JAMGÁRISHNING MOHIYATI, OMILLARI VA SAMARADORLIGI

Mahmudov Diyorbek Olimboy o‘g‘li

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti. Gidrotexnika qurilishi yo‘nalishi talabasi. Qarshi shahri. O‘zbekiston Respublikasi.

diyorbek20030602@gmail.com

Abduvaliyev Doniyorbek Baxromjon o‘g‘li

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti. Suv xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish yo‘nalishi talabasi. Qarshi shahri. O‘zbekiston Respublikasi.

abduvaliyevdoniyorbek0@gmail.com

Farhodov Ma’murjon Jasurbek o‘g‘li

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti. Qishloq xo‘jaligini mexaniziyatsiyalash yo‘nalishi talabasi. Qarshi shahri. O‘zbekiston Respublikasi.

mamurjonfarhodov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Jamgárishning iqtisodiyotdagi yalpi sarflarning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanib, investitsion tavsiyadagi tovarlarga talab darajasini belgilab beradi. Investitsiyalar jamgárishining amalda namoyon bo‘lish shakli bo‘lganligi sababli dastlab, tahlilni jamgárishning mohiyati, omillari va samaradorligini nazariy jihatdan asoslash bilan boshlaymiz.

Kalit so‘zlar: Yalpi sarflarning, Investitsiyalar, investitsion, kapital qo‘yilma, renovatsiya, infratuzilma, energiyani tejab-tergab.

ABSTRACT

Accumulation is considered one of the components of gross spending in the economy and determines the level of demand for investment goods. Since investment accumulation is a form of practical manifestation, we will begin the analysis with a theoretical justification of the essence, factors and effectiveness of accumulation.

Keywords: Gross expenditure, Investments, investment, capital investment, renovation, infrastructure, energy saving.

Jamg‘arish deb, milliy daromadning bir qismi asosiy va aylanma kapitallarni shuningdek, ehtiyot zahiralarini ko‘paytirish uchun sarflanishiga aytildi. Amalda jamg‘arish kapital mablag‘lar yoki investitsion sarflar shaklida yuzaga chiqib, u yangi asosiy kapitalni hosil qilish, ishlab tugunlarni kengaytirish, rekonstruksiyalash va yangilashga qilinadigan xarajatlarni ifodalaydi. Jamg‘arish va “kapital qo‘yilma” yoki “investitsion sarflar” tushunchalari bir xil mazmunga ega emas. Bir tomondan, kapital qo‘yilma yoki investitsiyalarning chegaralari jamg‘arish fondiga qaraganda kengroq, chunki renovatsiyaga (ya’ni eskirgan ob’ektlarni batamom almashtirishga) sarflanadigan amortizatsiya fondining bir qismi ham ularning manbai bo‘lib xizmat qiladi. Ikkinchi tomondan, “jamg‘arish” tushunchasi investitsion sarflar doirasidan chiqib ketadi, chunki u faqat asosiy kapitalning emas, balki aylanma kapitalning, shuningdek, ehtiyot zahiralarining kengayishini ham anglatadi. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish maqsadidagi jamg‘arish bir-biridan farqlanadi. Jamg‘arilgan mablag‘larning moddiy ishlab chiqarish sohasining asosiy kapitallarini va aylanma mablag‘larini kengaytirishga ketadigan qismini ishlab chiqarish sohasidagi jamg‘arish summasini hosil qiladi. Ishlab chiqarish sohasidagi jamg‘arish iqtisodiy o‘sishning muhim omilidir. Ijtimoiy-madaniy sohadagi jamg‘arish (noishlab chiqarish jamg‘arishi) uy-joy fondini, kasalxonalar, o‘quv muassalari madaniyat, sog‘liqni saqlash, sport muassasalari, ya’ni nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlarini kengaytirish, rekonstruksiyalash, yangilashga sarflanadi. Noishlab chiqarish sohasini kengaytirish ham ishlab chiqarishni rivojlantirishning zarur shartidir. Jamg‘arish summasi, uning hajmi va tarkibi takror ishlab chiqarish sur’atlarini belgilab beradigan hal qiluvchi omillardir. Jamg‘arish normasi bevosita jamg‘arish summasining butun milliy daromad hajmiga nisbati bilan aniqlanadi. Jamg‘arish normasining ham o‘z chegarasi bo‘lib, uni oshirish iqtisodiy jihatdan samarasiz bo‘lib chiqishi va salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Masalan, uning haddan tashqari ortishi natijasida investitsion sarflar samaradorligi pasayib ketadi mumkin, chunki kapital mablag‘lar hajmi bilan qurilish tashkilotlarining quvvatlari, materiallar va uskunalar etkazib berish imkoniyatlari, infratuzilmaning rivojlanishi o‘rtasida nomutanosiblik paydo bo‘ladi. Mablag‘larning sochilib ketishi, ob’ektlarni barpo etish muddatlarining cho‘zilib ketish xavfi oshadi, oqibatda ular qimmatlashadi, barpo etish jarayonidayoq ma’naviy jihatdan eskiradi, tugallanmagan qurilishlar ko‘payadi. Oqibatda iqtisodiy o‘sish pasayib ketish tamoyiliga ega bo‘ladi. Shunday qilib, jamg‘arish hajmi iqtisodiy o‘sish sur’atlari va sifatiga faqat o‘zining miqdori bilangina hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatib qolmaydi. Fan-texnika revolyutsiyasi sharoitida ularidan foydalanish samaradorligi birinchi o‘ringa chiqadi. Jamg‘arish hajmi milliy daromadning bir qismini tashkil etadi va shu sababli milliy daromad hajmi ko‘payishini belgilaydigan omillar, jamg‘arish miqdorini ham belgilab beradi. Bu omillardan asosiysi qo‘llaniladigan resurslar

massasi va ularning unumdorligidir. Jamg‘arish miqdori ishlab chiqarish jarayonida xom-ashyo, materiallar, energiyani tejab-tergab sarflashga ham bog‘liq. Mahsulot birligiga ularni sarflashni kamaytirish moddiy vositalarning o‘scha miqdorida mahsulotlarni ko‘proq hajmda ishlab chiqarishga imkon beradi. Milliy iqtisodiyotda YAIMning asosiy qismi yangidan vujudga keltirilgan sof ichki mahsulot bo‘lib, uning sotiladigan keying puldagi ifodasi milliy daromad deb yuritilib, u iste’mol va jamgárma maqsadlarida sarflanadi. Keng ma’noda iste’mol jamiyat iqtisodiy ehtiyojlarni qondirish jarayonida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlardan foydalanishini bildirib unumli va shaxsiy iste’molga ajratiladi. Jamagárma-bu aholi, korxona (firma) va davlat joriy daromadlarning kelajakdagi ehtiyojlarni qondirish va foizli daromad olish maqsadlarida to‘planib borishi. Uning hajmi barcha xo‘jaliklar daromadidan iste’mol sarflarini ayirib tashlash yo‘li bilan aniqlanadi.

XULOSA

Iste’molchilarining daromadlari o‘sib borgan sari ularning jamgármasi bo‘lgan moyilliklari shunchalik oshib boradi. Amalda jamgárish kapital mablag‘lar yoki investitsion sarflar shaklida yuzaga chiqib, u yangi kapitalni hosil qilish, ishlab turganlarini kengaytirish, rekonstruksiyalash va yangilashga qilinadigan xarajatlarni ifodalaydi. Jamgárish summasi milliy daromadning bir qismini tashkil etadi va shu sababli milliy daromad hajmi ko‘payishini belgilaydigan omillar jamgárish miqdorini ham belgilab beradi. Bu omillarda asosiysi qo‘llaniladigan resusrslar massasi va ularning unumdorligidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: “O‘zbekiston” 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi 2019-yil 6-dekabrdagi “kasaba uyushmalari to‘g‘risida”O‘RQ-588-sonli Qonuni
3. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. Raqobat to‘g‘risida. 2012-yil 6-yanvar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida.